

**BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI HUZURIDAGI
IQTISODIYOT IXTISOSLIGIDAN ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.19/30.12.2019.I.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

JO‘RAYEVA GULZIRA ILHOMJON QIZI

**ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии
(PhD) по экономическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD)
on economical sciences**

Jo‘rayeva Gulzira Ilhomjon qizi

Elektron tijoratni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishni
takomillashtirish3

Жураева Гулзира Ильхомжон кизи

Совершенствование использования цифровых технологий в развитии
электронной коммерции.....27

Juraeva Gulzira Ilhomjon kizi

Improving the use of digital technologies in e-commerce development..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works

**BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI HUZURIDAGI
IQTISODIYOT IXTISOSLIGIDAN ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.19/30.12.2019.I.88.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BIZNES VA TADBIRKORLIK OLIY MAKTABI

JO‘RAYEVA GULZIRA ILHOMJON QIZI

**ELEKTRON TIJORATNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt2365- raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash web-sahifasi (www.gsbe.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Rasulova Dilfuza Valiyevna**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Kenjabayev Aman Turg'unovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abdullayev Munis Qurbonovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, (PhD), professor

Yetakchi tashkilot: **Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi huzuridagi DSc.19/30.12.2019.1.88.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "28" noyabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent sh., Mirobod tumani, Mirobod ko'chasi 25-uy. Ma'lumot uchun telefon: (99871) 239-03-05, Faks: (998 71) 239-03-05, email: info@rgsbm.uz.

Dissertatsiya bilan Biznes va tadbirkorlik oliy maktabining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent sh., Mirobod tumani, Mirobod ko'chasi 25-uy. Ma'lumot uchun telefon: (99871) 239-03-05, Faks: (998 71) 239-03-05, email: info@rgsbm.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « ____ » _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil « ____ » _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).



D.H. Suyunov
Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

T.U. Qodirov
Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

A.T. Kenjaboyev
Ilmiy darajalar berish bo'yicha ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurligi. Dunyoda “raqamli iqtisodiyot”ning o‘sish sur‘atlari deyarli 16 %ni tashkil etadi. Taraqqiy etgan davlatlarda “raqamli iqtisodiyot”ning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 7 %ga yetgan. Ular hozirning o‘zidan “raqamli iqtisodiyot”ning joriy qilinishidan katta foyda ko‘rmoqdalar. Jumladan, AQSh yiliga 400 milliard AQSh dollaridan ko‘proq “raqamli xizmat”larni eksport qilmoqda. 2026-yilgacha AQSh sanoat sohasini “raqamlashtirish”dan qo‘shimcha 20 trillion AQSh dollari daromad olishi kutilmoqda.

Rivojlangan davlatlar tomonidan elektron tijoratga katta e‘tibor qaratilayotgani, bunday savdolar hajmi hozirgi kunda 6,5 trillion dollargacha o‘sgani O‘zbekistonda ham ushbu sohani yanada taraqqiy ettirish zarurligini ko‘rsatmoqda. Jumladan, Forbes xalqaro tadqiqot agentligi prognozlarini bo‘yicha global elektron tijorat bozori 2030-yilda jami 8,3 trillion dollarni tashkil etib, chakana savdoning umumiy hajmining 50 foiziga yetishi kutilmoqda¹. Hozirgi kunda O‘zbekistonda elektron tijorat bo‘yicha 50 dan ortiq marketpleyslar ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib, ularning yillik aylanmasi 300 million AQSh dollarini tashkil etadi. 2027-yilga kelib ularning aylanmasi 1 milliard AQSh dollariga yetishi kutilmoqda. Shuningdek, bugungi kunda Meta (facebook), Google, Apple, Booking.com, Zoom kabi 57 ta kompaniya ro‘yxatdan o‘tgan bizga ma‘lumdir. O‘zbekistonda 2021-yilda elektron tijorat bozori hajmi 201 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 543 million AQSh dollariga yetdi².

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi 6079-sonli ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonida mamlakatda raqamli sanoatni jadal rivojlantirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan bo‘lib, hududlar va tarmoqlarni raqamli transformatsiya qilish dasturlarini amalga oshirish belgilab berilgan. Strategiyani amalga oshirish bo‘yicha “yo‘l xaritasi” elektron hukumatni rivojlantirish, raqamli sanoat, raqamli ta‘lim va raqamli infratuzilma sohalaridagi maqsadlarni qamrab olgan.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-apreldagi PQ–4699-sonli “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 21-noyabrdagi PQ–4024-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 14-sentyabrdagi PQ–4751-sonli “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ <https://www.forbes.com/advisor/business/ecommerce-statistics/>.

² <https://gov.uz/oz/miit/news/view/10847>

Dissertatsiya ishining respublikada olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlarga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqot mavzusining o‘rganilganlik darajasi. Bugungi kunda “Raqamlashtirish” atamasi tor va keng ma’noda qo‘llanilmoqda. Tor ma’noda raqamlashtirish axborotning raqamli shaklga aylanishini anglatadi, bu ko‘p holatlarda xarajatlarning pasayishiga, yangi imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Keng ma’noda “raqamlashtirish” jarayoni, odatda, raqamli texnologiyalarni keng qo‘llash va assimilyatsiya qilish tashabbusi bilan boshlangan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishni anglatadi. I.V. Shmelkova ta’kidlaganidek, raqamli iqtisodiyotga mos keladigan shaxsning eng muhim xususiyati bu raqamli texnologiyalarga egalik qilish va ularni kasbiy faoliyatda qo‘llashdir³. Raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari bo‘yicha ko‘plab xorijlik olimlar, jumladan, B.S. Dmitriyevskiy, Erik Brynjolfsson, S.B. Korobko, T.V. Marinina, Andrew McAfee, Don Tapscott, Klaus Schwab va boshqa shu singari olimlar⁴ ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

Mahalliy iqtisodchi olimlar A.Sh. Bekmuradov, S.S. G‘ulomov, N.S. Kasimova, A.T. Kenjabayev, B.Y. Xodiyev, V.P. Voronov, A.A. Tedeev, U.K. Yakubov hamda Y.S. Ilxamova⁵ning ilmiy izlanishlarida elektron tijoratni tashkil etish masalalari turli davlatlar tajribasi misolida batafsil yoritilgan. Shu bilan birga ushbu tadqiqotlarda elektron tijorat tizimini rivojlantirish va takomillashtirish mexanizmlari ham tadqiq etilgan.

A.N. Aripov, S.S. G‘ulomov, A.T. Shermuxammedov va boshqalar axborot kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish hamda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiyotning turli sohalariga va innovatsion rivojlanishiga ta’siri muammolarini tadqiq qilishgan⁶.

³ Pirnazarovna D. F., Salohitdinovna B. S. Raqamli Texnologiyalarni ta’lim tizimiga tadqiq etishning ahamiyati haqida ba’zi mulohazalar //fan, ta’lim va amaliyotning integratsiyasi. – 2022. – S. 88-92.

⁴ Abd Razak, S. N. A., Noor, W. N. B. W. M., & Jusoh, Y. H. M. (2021). Embracing Digital Economy: Drivers, Barriers and Factors Affecting Digital Transformation of Accounting Professionals. *International Journal of Advanced Research in Economics and Finance*, 3(3), 63-71. Ahmedov, I. (2020). The Impact of Digital Economy on International Trade. *European Journal of Business and Management Research* 5(4):1-7. Alaveras, G. and B. Martens (2015, August). *International Trade in Online Services*. JRC Working Papers on Digital Economy 2015-08.

⁵ Ахбаров Б.С. Иқтисодиётда ахборот технологиялари. -Т.: “Фан ва технология”, 2018.- 316 б; R.X. Ауиров ва бoshqalar. O‘zbekistonda elektron biznes: muammolar va yechimlar / Т.: ТМІ, 2016. 200 б. Elektron tijorat. Бегалов Б.А. Технология процессов формирования информационно-коммуникационного рынка. Монография.Т.: Фан, 2000. -126 с.; Бекмуратов А.Ш., Мусалиев А.А. Информационный бизнес: Учебное пособие. Т.: “Алоқачи”, 2007.-320 с.; Фуломов С.С. ва бoshqalar. “Иқтисодий информатика”. -Т. “Ўзбекистон”, 1999.-528 б.; Касимова Н.С., Мухторова У.К. Малый бизнес и частное предпринимательство. Учебное пособие.Т.: ТФИ, 2019.-180 с.; Кенжабаев А.Т. ва бoshqalar. Электрон бизнес асослари: Ўқув қўлланма. – Т. “Иқтисод-молия”, 2008. – 276 б.; Ходиев Б.Ю. и другие. “Экономическая информация: классификация, коммерческая тайна и информационная безопасность”. -Т., “Фан”, 2002.; Воронов В.П. Электронная коммерция: Мировые и российские проблемы. ЭКО, 2002. Тадеев А.А. Электронная коммерция: Правовые регулирование и налогообложение. PRIOR, 2002. U.K. Yakubov, Y.S. Ilxamova, M.I. Azizova; -Т.: “Iqtisod-Moliya”, 2020. – 260 б.

⁶ Aripov Abdulla Nigmatovich, “Axborot-kommunikatsiyalar sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish muammolari” 2004-yil, yo‘nalish 08-00-05- “Menejment” ixtisosligi bo‘yicha nomzodlik dissertatsiyasi.

Shu bilan bir qatorda mamlakatimizda elektron tijoratda raqamli texnologiyalardan foydalanish va tezkor baholash imkoniyatini yaratadigan izlanishlar yetarli darajada amalga oshirilmagan.

Tadqiqot ishining maqsadi. Elektron tijoratni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini yanada oshirishga qaratilgan ilmiy - uslubiy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

elektron tijoratni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslarini o'rganish;

raqamli texnologiyalarni elektron savdoni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarini o'rganish;

elektron tijoratni rivojlantirishda ilg'or mamlakatlar tajribasidan foydalanish yo'llarini ochib berish;

O'zbekistonda elektron tijoratning rivojlanishi va unda axborot-texnologiyalar holatini tahlil qilish;

elektron tijorat platformalari va unda savdoni tashkil etishni rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

elektron tijorat platformalarida savdo hajmiga ta'sir etuvchi omillarni baholash;

elektron tijoratda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning istiqbollarni ishlab chiqish;

elektron tijoratda raqamli texnologiyalardan foydalanish yo'llari bo'yicha xulosa va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyekti qilib elektron savdo platformalari olingan.

Tadqiqot predmeti bo'lib elektron savdoda raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-matematik modellashtirish, statistik ma'lumotlarni guruhlash, solishtirma tahlil, tanlama kuzatuv, korrelyatsion va regression tahlil, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

elektron tijoratda sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan mijoz tahlilini joriy etish orqali xaridor xatti-harakatlarini real vaqt rejimida bashorat qilish tizimi ishlab chiqildi;

elektron tijorat platformalari orqali iste'molchilarning maqsadli auditoriyasi bilan munosabatlar jarayonida kommunikatsiya, konversiya va monetizatsiya qilish bosqichlarini mos bo'lgan strategiyalardan foydalanish imkonini beruvchi mexanizm taklif etilgan;

mobil ilovalar asosida ishlovchi elektron tijorat tizimlarining foydalanuvchi xatti-harakatiga ta'sirini tahlil qiluvchi regressiya modeli taklif qilindi;

chiziqli trend modellardan foydalanish asosida elektron savdo maydonchasi rivojlanishining 2026-yil uchun oylar kesimida prognoz ko'rsatkichlari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

raqamli iqtisodiyot va elektron savdo hamda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish borasida olib borilgan ilmiy-nazariy tadqiqot ishlari tizimlashtirilgan;

elektron savdo orqali maqsadli auditoriya bilan munosabatlar jarayoni algoritmi ishlab chiqilgan;

elektron savdo platformalarini raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi baholangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Dissertatsiyada foydalanilgan nazariy manbalar davlat nashriyotlarida chop etilgan adabiyotlardan, amaliy ma'lumotlar esa Davlat statistika qo'mitasi to'plamlaridan, chakana savdo korxonalarini va Internet magazinlar bo'yicha yig'ilgan statistik manbalar, muallifning sotsiologik so'rov natijalaridan olinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning rasmiy ko'rib chiqilganligi va vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflardan elektron savdo platformalari faoliyatini takomillashtirish va raqobatbardoshligini oshirishga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini belgilashga doir ilmiy-nazariy hamda metodologik jihatdan chuqur tadqiq qilish, ushbu sohani rivojlantirishning fundamental asoslarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy taklif va amaliy tavsiyalar elektron savdo platformalari faoliyatini yo'lga qo'yish va ularni raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi muammolarni yechishga va samaradorligini oshirishga va uzoq muddatli strategik qarorlar qabul qilishga qaratilgan yo'l xaritalarini ishlab chiqishda, strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, to'plangan materiallardan o'quv-uslubiy adabiyotlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Elektron tijoratni raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

elektron tijoratda sun'iy intellekt asosida avtomatlashtirilgan mijoz tahlilini joriy etish orqali xaridor xatti-harakatlarini real vaqt rejimida bashorat qilish tizimi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi" MChJ (2025-yil 15-iyul 33-03-1/1161 – son ma'lumotnoma), O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (2025-yil 15-iyuldagi №33-08/6187-son ma'lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilgan. Ushbu ilmiy takliflarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida elektron tijorat platformalari real vaqtli prognoz orqali mijozni ushlab qolish darajasi 32% ga oshirishga erishishi imkoniyati isbotlandi. Bu esa aholiga yanada sifatli xizmat ko'rsatish, tezkor yetkazib berish va qulay narxlarni taqdim etish bilan birga, platformalarning barqaror o'sishi hisobiga yangi ish o'rinlari yaratilishiga, IT mutaxassislariga bo'lgan talab ortishiga va raqamli ko'nikmalar rivojlanishiga xizmat qiladi;

elektron tijorat platformalari orqali iste'molchilarning maqsadli auditoriyasi bilan munosabatlar jarayonida kommunikatsiya, konversiya va monetizatsiya qilish bosqichlarini mos bo'lgan strategiyalardan foydalanish imkonini beruvchi mexanizmi "Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki

direksiyasi” MChJ (2025-yil 15-iyul 33-03-1/1161 – son ma’lumotnoma), O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (2025-yil 15-iyuldagi №33-08/6187-son ma’lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilgan. Mazkur ilmiy yangilik natijasida kompaniyalarning reklama strategiyasini maqsadli mijozga yo‘naltirish natijasida mobil ilovani yuklab olish darajasi 9 foizga, foydalanuvchilar soni 10 foizga oshdi. Natijada aholining raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib, elektron savdo madaniyati oshadi hamda platformalar kichik biznes uchun yangi bozorlar yaratib, kasb egalari hamda tadbirkorlarga qo‘shimcha iqtisodiy imkoniyatlari yaratiladi;

mobil ilovalar asosida ishlovchi elektron tijorat tizimlarining foydalanuvchi xatti-harakatiga ta’sirini tahlil qiluvchi regressiya modeli “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ (2025-yil 15-iyul 33-03-1/1161 – son ma’lumotnoma), O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (2025-yil 15-iyuldagi №33-08/6187-son ma’lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilgan. Ushbu ilmiy takliflarning amaliyotga joriy qilinishi natijasida O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan elektron tijorat platformalari uchun iste’molchi xarid qilish ishonchini baholovchi regressiya model asosida xaridorlarni ilovaga bo‘lgan munosabatlarini baholash imkoniyatiga ega bo‘lindi. Bu o‘z navbatida korxonalarda: xizmat sifatini oshirish, shikoyatlar sonini kamaytirish, iste’molchi huquqlarini himoya qilish bo‘yicha samarali mexanizmlarni joriy etish imkonini beradi;

chiziqli trend modellardan foydalanish asosida kichik biznes subyektlarining elektron chakana savdo aylanmasini me’yoriy iste’mol hajmiga ko‘ra rivojlanishining 2026-yilgacha bo‘lgan prognoz ko‘rsatkichlari “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ (2025-yil 15-iyul 33-03-1/1161 – son ma’lumotnoma), O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi (2025-yil 15-iyuldagi №33-08/6187-son ma’lumotnoma) tomonidan amaliyotga joriy etilgan. Mazkur ilmiy yangilikni joriy etilishi natijasida kichik biznes subyektlarining elektron tijoratdagi salmog‘ini 2025-yildagi 2,3 foizdan 6,4 foizga oshirish bo‘yicha strategik yo‘nalishlar belgilashda foydalanilgan. Shu asosida, kichik tadbirkorlarning daromadi oshishiga, ayollar va yoshlar biznesining rivojlanishiga hamda hududlarning raqamli iqtisodiy faolligini oshirishga imkon yaratadi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma’ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 10 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo‘yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda, ilmiy-amaliy konferensiyalarda 4 ta ma’ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, tadqiqot usullari ifodalangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalarini, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va asoslanganligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, tadqiqot natijalarini nashr etilishi va dissertatsiya tarkibi to‘g‘risida ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiya ishining **“Elektron tijoratni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron savdoni rivojlantirishda texnologiyalardan samarali foydalanishning nazariy asoslari, raqamli texnologiyalarni elektron savdoni rivojlanishiga ta‘sirini aniqlash usullari, elektron tijoratni rivojlantirishda ilg‘or mamlakatlar tajribasidan foydalanish yo‘llari va muammolari bo‘yicha xorij tajribalari ochib berilgan.

Elektron tijorat bu – internet va raqamli texnologiyalar vositasida tovarlar va xizmatlarning savdo-sotiq faoliyatini amalga oshirish jarayonidir. U nafaqat xarid va sotuvni, balki reklama, mijozlar bilan muloqot, to‘lovlarni amalga oshirish, buyurtmalarni boshqarish va mahsulotlarni yetkazib berish kabi biznesning barcha bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Elektron tijorat B2B (business-to-business), B2C (business-to-consumer), C2C (consumer-to-consumer) va C2B (consumer-to-business) kabi modellarda faoliyat yuritadi hamda global iqtisodiy tizimda raqobatbardoshlik, operativlik va qulaylikni oshirishda muhim o‘rin egallaydi⁷.

O‘z tabiatiga ko‘ra, elektron tijorat internet texnologiyalarining zamonaviy rivojlanishi mahsulidir. Muallif tomonidan berilgan ta‘rifga ko‘ra elektron tijorat deganda axborot va telekommunikatsiya tizimlaridan foydalangan holda masofadan turib amalga oshiriladigan tijorat va tadbirkorlik, savdo, tijorat va vositachilik faoliyatining har qanday turi, savdoda ishtirok etish, tovarlar, ko‘chmas mulk, qimmatli qog‘ozlar sotish, foyda olish maqsadida xizmatlar ko‘rsatish deb tushunilishi taklif etiladi (1-jadval).

Elektron tijoratdagi raqamli transformatsiya barqarorlik va mijozlarni uzoq vaqt davomida jalb qilish va elektron tijorat brendlari bilan bog‘lash qobiliyatini keltirib chiqaradi. Texnologik jihatdan elektron tijoratning rivojlanishini to‘rtta asosiy trend belgilab beradi:

- mobil texnologiyalar;
- biznes-modellar;
- bulutli texnologiyalar;
- ijtimoiy media.

⁷ Laudon, K. C., & Traver, C. G. (2021). *E-commerce 2021: Business, Technology and Society* (16th ed.). Pearson Education.

Elektron tijoratni afzalligi va kamchiliklari

Afzalliklar	Kamchiliklar
24/7 xizmat ko'rsatish va savdo imkoniyati mavjud	Internetga qaramlik, texnik nosozliklarda faoliyat to'xtab qolishi
Xarajatlarni kamaytirish: ijaralar, ishchi soni, qog'oz hujjatlar yo'qligi	Internet firibgarligi, kibertahdidlar xavfi
Mahsulotlar va xizmatlarni global bozorga olib chiqish imkoniyati	Raqamli savodxonlik past bo'lgan hududlarda foydalanuvchi bazasi torayishi
Marketing va mijozlar bilan aloqalarni avtomatlashtirish imkoniyati	Yetkazib berish tizimidagi kechikishlar mijoz noroziligiga olib kelishi mumkin
Tezkor to'lovlar, elektron to'lov tizimlari orqali qulaylik	Mahsulotni bevosita ko'rmasdan xarid qilish – ishonchni pasaytiradi
Tahliliy vositalar yordamida mijoz ehtiyojlarini aniqlash va taklifni moslashtirish	Yangi boshlovchilar uchun texnologik xarajatlar va dasturlash ko'nikmalari zarur

Raqamli texnologiyalar tez sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonaviy iqtisodiyotda elektron tijorat platformalarining samaradorligini va raqobatbardoshligini belgilovchi eng asosiy omilga aylangan bo'lib, ayniqsa ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, tahlil qilish va avtomatlashtirish orqali savdo jarayonlarini optimallashtirish imkonini beradi (2-jadval).

Raqamli texnologiyalar elektron tijoratni rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar⁸

Omil	Afzalliklari	Elektron savdoga ta'siri
Internet infratuzilmasi	Tezkor va barqaror aloqa	Xarid va savdo jarayonlarini uzluksiz amalga oshirish imkoniyati yaratiladi
To'lov tizimlari	Mobil banking, elektron hamyonlar, onlayn to'lovlar	Xaridorlar uchun qulaylik, to'lov tezligi va ishonchliligi oshadi
Logistika va yetkazib berish	Tezkor va ishonchli xizmatlar	Xaridorlarni qoniqtiradi, savdo hajmini oshiradi
Axborot xavfsizligi	Ma'lumotlar va tranzaksiyalar himoyasi	Xaridorlarning ishonchi ortadi, firibgarlik kamayadi
Mobil texnologiyalar	Mobil ilovalar, moslashuvchan saytlar	Xarid qilish qulayligi oshadi, foydalanuvchi soni kengayadi
Sun'iy intellekt va big data	Shaxsiylashtirilgan tavsiyalar, tezkor tahlil	Mijoz tajribasi yaxshilanadi, sodiqlik oshadi
Raqamli marketing	SEO, SMM, target reklama	Brend tanilishi va sotuvlar samaradorligi oshadi

Tadqiqotimizda AQSh va Xitoy mamlakatlarining raqamli iqtisodiyotda erishgan yutuqlari, Amazon va Alibaba elektron savdo platformalarining keng imkoniyatlari tahlil qilingan. O'zbekiston ham xorijiy davlatlarning ilg'or

⁸ OECD (2020). E-commerce in the time of COVID-19. OECD Publishing, UNCTAD (2021). Digital Economy Report 2021: Cross-border data flows and development, Journal of Electronic Commerce Research va International Journal of Information Management.

tajribalariga asoslanib quyidagilarga ko‘proq e‘tiborini qaratishi lozimligi borasida tavsiyalar ishlab chiqildi:

raqamli infratuzilmani yanada kuchaytirish;
huquqiy bazani shakllantirish (elektron shartnomalar, elektron imzo);
zamonaviy to‘lov tizimlarini integratsiya qilish va xalqaro tizimga ulash;
logistika va yetkazib berish tizimini rivojlantirish, pochta va kuryer xizmatlarini raqamlashtirish, avtomatlashtirilgan omborlar va logistika markazlarini tashkil etish;

mahalliy tadbirkorlarni qo‘llab-quvvatlab, qonunchilikda ularga keng imkoniyatlar yaratish borasida tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Jahonning ko‘plab yetakchi mamlakatlari elektron tijorat platformalari o‘shish strategiyasi “Ijobiy teskari aloqa aylanasi” (virtuous cycle) modeli orqali ifodalangan bo‘lib, asosiy g‘oya iste‘molchilardan ko‘proq ma‘lumot to‘plagan holda tarmoqqa ta‘sir ko‘rsatish konsepsiyasiga asoslangan. Bu yondashuv orqali Amazon foydalanuvchilar soni va xizmatlar tarmog‘ini kengaytirib, bozorda raqobatbardosh ustunlikka erishib olgan.

Amazon o‘z ichki operatsiyalarini avtomatlashtirish, ommaviy xaridlar va samarali logistika orqali xarajatlarni kamaytiradi. Bu xarajatlar pasayishi narxlarning pasayishiga olib keladi. Xarajatlar past bo‘lgani sababli, Amazon mahsulotlarini arzonroq narxda taklif qila oladi. Bu esa xaridorlar uchun jozibadorlikni oshiradi.



1-rasm. Amazon kompaniyasining elektron tijorat modeli⁹

1-rasm Amazon kompaniyasining mashhur “flywheel”¹⁰ (momentum g‘ildiragi) modelini ifodalaydi. Bu model Amazon qanday qilib o‘z elektron tijorat tizimini doimiy ravishda kuchaytirishini ko‘rsatadi. Ushbu model esa mahalliy elektron tijorat platformalari faoliyatini rivojlantirishi va mijoz bilan munosabatini takomillashtirishda xizmat qiladi.


⁹ <https://feedvisor.com/resources/amazon-trends/amazon-flywheel-explained/>

¹⁰ Jim Collinsning Good to Great: Why Some Companies Make the Leap... and Others Don't (2001)

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonda elektron tijorat tashkil qilishda raqamli texnologiyalar ta’siri tahlili” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda elektron tijorat rivojlanishi va unda axborot texnologiyalar holati tahlili, elektron tijorat platformalari va unda savdoni tashkil etishni rivojlanish tendensiyalari hamda elektron savdoni tashkil etishning iqtisodiy samaradorligini baholash bo‘yicha uslubiy yondashuvlar taklif etilgan.

O‘zbekistonda internetdan foydalanuvchilar sonining ortib borishi mamlakatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining keng joriy etilishi va raqamli infratuzilmaning izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi. Ushbu o‘shish tendensiyasi bevosita internet tezligi va narxlaridagi ijobiy dinamikaga bog‘liq bo‘lib, mobil va statsionar internet tezligining sezilarli darajada oshgani, shuningdek, internet narxining arzonlashgani aholining internet xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirgan. Aynan shu holat internetdan foydalanish ko‘rsatkichlarining yildan-yilga barqaror sur‘atda oshishiga turtki bo‘lgan asosiy omillardan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonda elektron tijoratning ulushi yildan-yilga oshmoqda, bu esa raqamli texnologiyalar, internet infratuzilmasi va onlayn to‘lov tizimlarining rivojlanayotganidan dalolat beradi. Elektron tijorat savdo hajmi 2020-yildagi 1002,5 mlrd so‘mdan 2024-yilda 15 640,7 mlrd so‘mgacha oshgan. Bu esa 15 barobarga yaqin o‘shish demakdir. 2024-yilda elektron tijorat chakana savdoning 4,6 %ini tashkil etmoqda, bu esa onlayn savdoning iqtisodiyotdagi o‘rnini kengaytirayotganini ko‘rsatadi (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonda elektron tijorat va chakana savdo hajmi (mln so‘m)¹¹


Bugun O‘zbekistonda sanoat o‘zining o‘shish belgilarini ko‘rsata boshladi. Ekspertlar buni “Uzum market”, “Wildberries”, “Ozon” va boshqa o‘yinchilarning paydo bo‘lishi bilan bog‘lashmoqda (3-jadval).

¹¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlarida asosida muallif ishlanmasi.

Elektron savdo maydonlari to'g'risida ma'lumot¹²

№	Ko'rsatkichlar	“Uzum market”	“Amazon”	“Ozon”	“Alibaba”
1.	Elektron savdo shakli	B2C	B2C, B2B	B2C	B2B
3.	Mamlakat	O'zbekiston	AQSh	Rossiya	Xitoy
4.	Elektron savdo hajmi yillik	\$150 mln	\$575 mlrd	\$4.99 mlrd	\$127,4mlrd
5.	Elektron savdo qilish bozorlari	O'zbekiston	Dunyo bo'ylab	MDH davrlari va Gruziya	Dunyo bo'ylab
7.	Ilovada sotuvchilar soni	11000	9,7 mln (dunyo bo'ylab)	400000 ko'p	279 mln (dunyo bo'ylab)
8.	Foydalanuvchilar soni (oy)	10,6 mln	4,7 mlrd	75,7mln	755 mln

Raqamli iqtisodiyot rivojlanishi bilan sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari elektron tijoratning muhim vositasiga aylandi. SI foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish, shaxsiy tavsiyalar ishlab chiqish, narxni optimallashtirish va sotuv jarayonini avtomatlashtirishda qo'llanilmoqda.



3-rasm. Sun'iy intellekt yordamida foydalanuvchi xatti-harakatlarini real vaqt rejimida tahlil qilish va bashorat qilish tizimi¹³

¹² Muallif ishlanmasi.

Ayniqsa, real vaqt rejimida mijozning harakatini kuzatib, uning ehtiyojlarini bashorat qilish SI imkoniyatlarini to‘liq namoyon etadi. Elektron tijoratda mavjud tizimlardan farqli ravishda real vaqtli (onlayn) bashorat qilish orqali konversiya ko‘rsatkichlarini oshirish imkonini beradi. Quyidagi bosqichlar orqali avtomatik tahlil qilish va prognozlash algoritmi ishlab chiqildi.

3-rasmda sun‘iy intellekt asosida elektron tijorat platformasida foydalanuvchi xatti-harakatlarini tahlil qilish va bashoratlash jarayoni bosqichma-bosqich ko‘rsatilgan. Dastlab foydalanuvchi faoliyati sahifada qolish vaqti, izlash so‘zlari, xarid tarixi, chegirma tugmachasini bosish chastotasi kabi ma’lumotlar yig‘iladi, tozalanadi va sonli formatga o‘tkaziladi. Keyin ushbu ma’lumotlardan xos xususiyatlar ajratib olinib, ular asosida klassifikatsiya (Random Forest, CNN, XGBoost) va regressiya (LSTM) modellarini o‘qitish amalga oshiriladi. O‘rgatilgan model foydalanuvchining kelgusidagi xarid ehtimoli, sahifani tark etish xavfi yoki unga maxsus taklif zarurligini aniqlaydi. Yakuniy bosqichda esa natijalar avtomatik tarzda qo‘llanib, shaxsiylashtirilgan sahifa, pop-up takliflar va real vaqtli reklama taqdim etiladi. Bu jarayon foydalanuvchini ushlab qolish, xarid qilish ehtimolini oshirish hamda platformaning umumiy samaradorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mahalliy platformalar uchun eng maqbul model bu Random Forest yoki LSTM (Time series) asosidagi modeldir. Sun‘iy intellekt yordamida real vaqt rejimida foydalanuvchi harakatlarini avtomatik tahlil qilish va prognozlash elektron tijoratni yangi bosqichga olib chiqadi. Bu yondashuv xarid ehtimolini oshirish, mijozni ushlab qolish, shaxsiylashtirilgan xizmat ko‘rsatish va natijada foyda miqdorini ko‘paytirish imkonini beradi.

Random Forest modeli foydalanuvchilarning saytga kirish vaqti, mahsulot ko‘rishlari, savatchaga qo‘shish, baholash va sotib olish odatlari asosida ularning keyingi xatti-harakatlarini bashorat qilishda foydalaniladi¹⁴. Har bir mahsulot uchun sarflangan reklama miqdori, aksiya mavjudligi, foydalanuvchi reytinglari va sotuvlar asosida Random Forest modeli reklama kompaniyalarining qaysi segmentlarda eng yaxshi natijalar berganini ko‘rsatadi. Bu kompaniyalarga reklama byudjetini optimallashtirishga yordam beradi¹⁵.

Uzum market elektron savdo platformasida 500 dan ortiq maishiy kimyo tovarlari, uy-ro‘zg‘or buyumlari, elektronika tovarlarni sotuv holatlari o‘rganildi. Ular ichidan dastlab 200 ta Maishiy kimyo tovarlardan 50 tasi maqsadli tanlab olindi va uni <https://colab.research.google.com> elektron platformasiga “Pynton” kod yozish orqali kiritildi. Natijada, R^2 (R^2 score) 0.666 ko‘rsatkichga ega bo‘lindi. R^2 natija shuni anglatadiki, model sotuvdagi o‘zgarishlarning qariyb 66 % qismini izohlab bera oladi. MSE (Mean Squared Error): 6260.39 MSE qiymati model xatolik darajasini bildiradi va model prognozlari va real natijalar o‘rtasida ma’lum farq mavjud, biroq u maqbul darajada.

¹³ Muallif ishlanmasi.

¹⁴ Wang, Y., Yu, C., & Fesenmaier, D. R. (2002). Defining the virtual tourist experience. *Annals of Tourism Research*, 29(4), 999–1000.

¹⁵ Berman, R., & Katona, Z. (2013). The role of search engine optimization in search marketing. *Marketing Science*, 32(4), 644–651.

Maishiy kimyo mahsulotlari savdosida iste'molchilar uchun omillarni muhimlik darajasi¹⁶

№	Omillar	Ko'rsatkich
1.	Sharxlar soni	0.679124
2.	Mahsulot turi	0.103115
3.	Narx (so'm)	0.102203
4.	Sotuvda nechta bor	0.088497
5.	Aksiya mavjud	0.013513
6.	O'rtacha reyting	0.009013
7.	Oylik reklama xarajati	0.004535


Uzum Market platformasida maishiy kimyo mahsulotlari savdosiga iste'molchilar qaroriga ta'sir qiluvchi omillar ahamiyati turlicha darajada namoyon bo'ladi. "Sharxlar soni" (0.679) eng muhim determinant sifatida ajralib chiqadi. Bu natija shuni ko'rsatadiki, iste'molchilar onlayn xarid jarayonida boshqa foydalanuvchilarning fikr-mulohazalari va baholariga yuqori darajada tayanadi. U uchun ikkinchi o'rinda "Mahsulot turi" (0.103) hamda "Narx" (0.102) ko'rsatkichlari joylashgan. Bu holat iste'molchilarning xarid qarorida mahsulotning funksional xususiyatlari va narx siyosati muhim ahamiyatga ega ekanligini bildiradi. Uzum Market platformasida maishiy kimyo mahsulotlarini sotishda iste'molchilarning asosiy e'tibori ijtimoiy ishonch ko'rsatkichlariga, ya'ni sharxlar soniga qaratilgan. Shu sababli sotuvchilar uchun eng samarali strategiya – mahsulotlar bo'yicha ijobiy va ko'p sonli sharhlarni shakllantirish, narx siyosatini raqobatbardosh darajada belgilash hamda mahsulot xilma-xilligini kengaytirishdir (4-jadval).

Narx oshishi bilan sotuv hajmi keskin kamayishi aniqlandi. Past narxli mahsulotlarda talab ancha yuqori. Bu holat maishiy kimyo tovarlari bozorida arzon segmentning muhim o'rin tutishini bildiradi. Tahlil shuni ko'rsatadiki, narx va sotuv o'rtasida manfiy bog'liqlik mavjud. Shu bilan birga, yuqori narxli mahsulotlar uchun qo'shimcha reklama va aksiyalar orqali xaridorlarni jalb qilish zarur.

Korrelyatsion issiqlik xaritasi asosida maishiy kimyo tovarlari sotuvlarida eng kuchli determinant sharxlar soni va narx omilidir. Sharxlar ko'pligi ijtimoiy ishonchni oshiradi va sotuv hajmini sezilarli darajada oshiradi, narx esa xaridorning xarid qilish qarorida asosiy omil bo'lib qolmoqda. Reklama va reytingning o'rni muhim bo'lsa-da, ular mustaqil holda katta ta'sir ko'rsatmaydi. Shu bois elektron savdo platformalarida samaradorlikni oshirish uchun narxni optimallashtirish va sharxlar sonini ko'paytirish strategiyasi eng muhim ustuvor yo'nalish hisoblanadi (4-rasm).

Maishiy kimyo tovarlari hamda uy ro'zg'or buyumlari, elektronika tovarlari bo'yicha Random Forest modeli natijalari shuni ko'rsatadiki, har uchchala tovar turida ham sharxlar soni sotuvlarga eng katta ta'sir ko'rsatmoqda. Narx va sotuv o'rtasida manfiy bog'liqlik mavjud, ya'ni narx oshishi bilan sotuv kamaymoqda.

¹⁶ <https://colab.research.google.com/> yordamida natija olindi muallif ishlanmasi.



4-rasm. Maishiy kimyo tovarlar korrelyatsion issiqlik xaritasi¹⁷

Reklamaning ta'siri esa mahsulot turiga qarab farqlanadi elektronika va maishiy kimyo tovarlarida u pastroq, uy-ro'zg'or mahsulotlarida esa kuchli ijobiy ta'sir kuzatilgan (5-jadval). Shunday qilib, sotuv hajmini oshirish uchun barcha segmentlarda sharxlarni ko'paytirish strategiyasi muhim, narxni optimallashtirish zarur, uy-ro'zg'or segmentida esa reklama kompaniyalarini kuchaytirish samarali bo'ladi.

5-jadval

Tovalarni haftalik savdo ko'rsatkichlaridagi omillarni ahamiyati¹⁸

Mahsulot turi	R ²	Eng muhim omil	Narx-sotuv korrelyatsiyasi	Reklama-sotuv korrelyatsiyasi
Elektronika	0.667	Sharxlar soni (0.43)	-0.214	-0.083
Maishiy kimyo	0.666	Sharxlar soni (0.679)	-0.284	0.132
Uy-ro'zg'or	-0.075	Sharxlar soni (0.673)	-0.207	0.660

Random Forest modeli elektron tijorat sohasida o'zining barqarorligi, aniqligi va moslashuvchanligi sababli turli sohalarda samarali qo'llaniladi. U orqali kompaniyalar xaridorlarni chuqur tahlil qilishi, tavsiya tizimlarini takomillashtirishi, reklama kompaniyalarini optimallashtirishi va narxlash siyosatini ratsional tarzda boshqarishi mumkin. Ayniqsa, katta hajmdagi murakkab ma'lumotlar bilan ishlovchi elektron tijorat platformalari uchun bu model muhim analitik vosita sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining **“Elektron tijoratni tashkil etishda raqamli texnologiyalardan foydalanish istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida elektron tijoratni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish

¹⁷ <https://colab.research.google.com/> yordamida natija olindi muallif ishlanmasi.

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

yo'llari, elektron savdo platformalarini samarali tashkil etilishini tahlil qilish va baholash hamda elektron savdoda raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishning istiqbollari qaratilgan ilmiy xulosalar va takliflar shakllantirilgan.

Muallif tomonidan elektron tijorat platformalari orqali iste'molchilarning maqsadli auditoriyasi bilan munosabatlar jarayonida kommunikatsiya strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib ushbu model elektron tijorat platformalarida iste'molchilar bilan munosabatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish jarayonini ifodalaydi. Modelning iqtisodiy ahamiyati shundaki, u korxonalar resurslarini optimal taqsimlash, xarajatlarni minimallashtirish va daromadni maksimallashtirishga xizmat qiladi. Birinchi bosqichda maqsadli auditoriyani jalb qilish, brendga bo'lgan dastlabki qiziqishni shakllantirish va xabardorlikni oshirish maqsad qilingan. Bu jarayonda raqamli marketing, SEO, SMM va kontent strategiyalar qo'llanib, potensial mijozlar oqimi yaratiladi va reklama xarajatlarining samaradorligi oshadi. Ikkinchi bosqich tashrif buyuruvchilarni xaridorga aylantirishga qaratilgan bo'lib, A/B testlar, foydalanuvchi tajribasi (UX/UI)ni takomillashtirish, CTA, chegirmalar va aksiyalar asosiy vosita sifatida qo'llanadi. Bu esa konversiya koeffitsiyentini oshirib, daromadni ko'paytiradi. Uchinchi bosqichda mijozlar bilan uzoq muddatli munosabatlar rivojlantiriladi, sodiqlik dasturlari, retargeting, cross-sell va up-sell strategiyalar yordamida qayta sotib olishga rag'batlantiriladi, natijada marketing xarajatlari kamayib, mijozning umr davomiy qiymati oshadi. Modelning yakuniy natijasi – barqaror va sodiq mijoz bazasini shakllantirish, foyda marjasini oshirish hamda korxonaning raqobatbardoshligini mustahkamlashdir.


Elektron tijorat platformalari orqali iste'molchilarning maqsadli auditoriyasi bilan munosabatlar jarayonida kommunikatsiya, konversiya va monetizatsiya qilish bosqichlarini mos bo'lgan strategiyalardan foydalanish imkonini beruvchi mexanizm taklif etilgan (5-rasm).

So'rovnoma Google Forms platformasi orqali amalga oshirildi va respondentlar O'zbekistonning turli hududlaridan (Toshkent, Samarqand, Andijon, Xorazm va boshqalar) jalb etildi. Ishtirokchilarning hududlar bo'yicha taqsimoti turlicha bo'lib, ularning eng katta qismini Toshkent shahri vakillari tashkil etdi. Ular orasida 26-35 yosh oralig'idagi foydalanuvchilar ustunlik qildi, bu esa mamlakatda elektron tijorat bilan eng faol shug'ullanayotgan yosh toifasi ekanini anglatadi.

So'rovnoma natijalariga ko'ra, eng ko'p foydalaniladigan platforma sifatida "Uzum Market" tanlandi respondentlarning 60 %dan ortig'i ushbu platformada xarid qilganini bildirgan. Ikkinchi o'rinda OLX 30 %ga yaqin va uchinchi o'rinda Wildberries va boshqa platformalar 10 % qayd etildi. Bu holat "Uzum Market"ning bozorning yetakchi elektron savdo ilovasi sifatida shakllanayotganini ko'rsatadi.

Tadqiqot doirasida mobil (5-rasm) ilovalar asosida ishlovchi elektron tijorat tizimlarining foydalanuvchi xatti-harakatiga ta'sirini tahlil qiluvchi regressiya modeli ishlab chiqish maqsadida O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan mobil ilova asosidagi elektron tijorat platformalarining foydalanuvchilarga ta'sirini o'rganish

maqsadida 365 nafardan ortiq respondent ishtirokida onlayn soʻrovnoma oʻtkazildi va ulardan 300 nafari javoblari ishonchli deb tanlab olindi.




5-rasm. Elektron tijorat platformalari orqali iste'molchilarning maqsadli auditoriyasi bilan munosabatlar jarayonida kommunikatsiya strategiyasi¹⁹

Xalqaro bozorga chiqishning asosiy bosqichlarini koʻrib chiqish kompaniyaning tashqi bozorga chiqishining anʼanaviy konsepsiyasining ishlash tizimini tahlil qilish uchun zarurdir. 6-rasmda kompaniyaning tashqi bozorga chiqadigan anʼanaviy tizimining ishlash sxemasi koʻrsatilgan. Global darajaga chiqishdan oldin kompaniya marketing muhitini tahlil qilishi va xalqaro miqyosda ishlash uchun oʻz resurs bazasining imkoniyatlarini baholashi kerak. Agar barcha koʻrsatkichlar kompaniyaning xalqaro darajaga chiqishi mumkinligini tasdiqlasa, u holda kompaniya dunyoning turli mamlakatlarida shoʻba korxonalarini va yangi bozorlarni joriy qila boshlaydi. Bu jarayon kompaniya resurslarining maʼlum xarajatlarini va ishlab chiqarishning ayrim omillarini investitsiyalashni talab qiladi. Shoʻba korxonalar joriy etilgan mamlakat qonunchiligi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishga bevosita taʼsir qiladi.

Respondentlarning aksariyati 90 %dan ortigʻi xaridlarni mobil telefon orqali amalga oshirishi aniqlangan. Bu esa elektron tijorat platformalarini aynan mobil

¹⁹ Muallif ishlanmasi.

formatga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Planshet va kompyuter orqali xarid qiluvchilar esa atigi 10 %dan kamroqni tashkil etdi. So'rovnoma doirasida foydalanuvchilardan ularning ilovalarni ochish chastotasi va xarid qilish faolligi haqida ham ma'lumotlar olindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, foydalanuvchilarning salmoqli qismi taxminan 40 % ilovalarni har kuni ochadi va faol foydalanuvchi hisoblanadi, 35-40 % foydalanuvchi esa ilovani haftada bir necha marta (3-5 marta) ishlatishini bildirgan. Xarid qilish bo'yicha esa 30 %dan ortig'i 3-5 marta, 25% ga yaqini esa 6 martadan ko'proq xarid qilganini ko'rsatdi.



6-rasm. Kompaniyaning elektron tijorat orqali xalqaro bozorga chiqish modeli²⁰

Tahlil jarayonida SPSS yordamida deskriptiv statistika, korrelyatsiya, chiziqli regressiya va ANOVA usullari qo'llanildi. Regressiya tahlili natijalariga ko'ra, foydalanuvchi ishonchiga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omil to'lov tizimi xavfsizligi ($\beta = 0.267$) bo'lib chiqdi. Shuningdek, interfeys sifati va tezlik ham sezilarli darajada ta'sir qiluvchi omillar sifatida ajralib turdi.

Ma'lumotlar yig'ilishi yakunlangach, barcha javoblar Excel formatida yig'ilib, keyinchalik SPSS dasturida tahlil qilish uchun tayyorlandi. Ushbu amaliy tahlillar

²⁰ Muallif ishlanmasi.

natijasida ilmiy asoslangan xulosalar shakllantirildi hamda ularning asosida bir nechta ilmiy yangiliklar taklif etildi.

Tadqiqot ishimizda quyidagi gipotezalarni belgilab oldik:

H1 – Ilova tezligi foydalanuvchi ishonchiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

H2 – Interfeys sifati foydalanuvchi ishonchiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

H3 – To'lov tizimi xavfsizligi foydalanuvchi ishonchini oshiradi.

H4 – Yetkazib berish sifati foydalanuvchi ishonchiga ijobiy ta'sir qiladi.

H5 – Narxning o'rtacha baholanishi foydalanuvchi ishonch darajasini kamaytiradi.

Xaridlar chastotasi bo'yicha esa foydalanuvchilarning 42 foizi har oyda 3-5 marta xarid qilishini bildirgan. Bu ko'rsatkich foydalanuvchilarning elektron savdoga tobora odatlanayotganini anglatadi. 28 % ishtirokchi esa bir oyda 6 martadan ko'proq xarid qiladi, bu esa ularning faol va sodiq mijozlar ekanligini ko'rsatadi. Shuningdek, 10 % ishtirokchi umuman xarid qilmasligi, bu segmentda e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan omillar mavjudligini anglatadi.

Ushbu raqamli tahlillar asosida aytish mumkinki, mobil ilovalar orqali xarid qilish odati aholining turli qatlamlari orasida keng tarqalayotgan bo'lib, ayniqsa o'zbek foydalanuvchisi uchun tezlik, narx muvozanati va platformaga bo'lgan ishonch hal qiluvchi omillardan biri bo'lib qolmoqda.

Regressiya natijalarida p-value < 0.05 bo'lsa, omil ahamiyatli hisoblanadi. $R^2 > 0.6$ bo'lsa, model yaxshi tushuntiradi. Narxlar va ilova tezligi xaridga eng kuchli ta'sir ko'rsatdi ($\beta_5 = -0.87$, $p < 0.01$; $\beta_1 = 0.73$, $p < 0.05$). 300 kishidan olingan empirik ma'lumotlar asosida qurilgan logistik regressiya modeli shuni ko'rsatdiki, mobil ilovalarda narxlarning maqbulligi, ilova ishlash tezligi va interfeys qulayligi xarid qilish ehtimoliga eng katta ta'sir ko'rsatuvchi omillar hisoblanadi. Bu esa O'zbekiston bozoridagi elektron tijoratda foydalanuvchi xatti-harakatini tahlil qilishda amaliy model taklif etish imkonini berdi.

6-jadval

Deskriptiv statistika natijalari

O'zgaruvchi	N	O'rtacha	Standart og'ish	Minimum	Maksimum
Tezlik (1–5)	300	3.00	0.65	2.0	5.0
Interfeys (1–5)	300	3.67	0.53	3.0	4.0
To'lov tizimi (1–5)	300	3.41	0.73	2.0	4.0
Yetkazib berish (1–5)	300	3.73	1.18	2.0	5.0
Narx (1–5)	300	2.99	0.58	2.0	4.0
Ishonch darajasi (1–5)	300	3.03	0.67	2.0	4.0

Tadqiqotda foydalanilgan asosiy o'zgaruvchilar bo'yicha deskriptiv statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, respondentlar tomonidan baholangan eng yuqori ko'rsatkich "Yetkazib berish sifati" (o'rtacha = 3.73) bo'lib, bu foydalanuvchilar uchun tez va ishonchli yetkazib berish xizmatining muhimligini aks ettiradi. Eng past o'rtacha ko'rsatkich esa "Narx bahosi" (o'rtacha = 2.99)ga to'g'ri kelgan bo'lib, bu holat mahsulot yoki xizmat narxlarining foydalanuvchilar uchun qoniqarsizligini bildiradi (6-jadval).

Iste'molchilarni ilovaga nisbatan "Ishonch darajasi"ning o'rtacha qiymati 3.03 ni tashkil etgan bo'lib, foydalanuvchilarning umumiy ishonch darajasi o'rta holatda ekanligi kuzatildi. Bu natijalar asosida keyingi bosqichlarda korrelyatsiya va regressiya tahlillari o'tkazilib, ishonchga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan (7-jadval).

7-jadval

Korrelyatsiya natijasi

	Tezlik	Interfeys	To'lov tizimi	Yetkazib berish	Narx	Ishonch darajasi
Tezlik	1	0.312	0.298	0.271	0.189	0.342
Interfeys	0.312	1	0.369	0.285	0.215	0.378
To'lov tizimi	0.298	0.369	1	0.304	0.221	0.411
Yetkazib berish	0.271	0.285	0.304	1	0.173	0.336
Narx	0.189	0.215	0.221	0.173	1	0.312
Ishonch darajasi	0.342	0.378	0.411	0.336	0.312	1

